



Приложение № 8 к правилам казначейского исполнения
бюджетов бюджетной системы Республики Узбекистан

ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 25.05.2022 г. № 2022-650-2-41-OВ

между Jumayeva Sobira Xudoyevna XК и Шофирикон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму
20000000

Глава

Казначейский лицевой счёт

110

100022860062587065200110003

(в суммах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4354990			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь	20 000 000,00			20 000 000,00
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	20 000 000,00			20 000 000,00

Всего 10200000,00 сум

Десять миллионов двести тысяч сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 6000000,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в Июнь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

Главный бухгалтер заказчика

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

«___» 20 ___ г.

Якубов Ҳалим Махмудович
Ф.И.О.

(подпись)

Аъзамов Исок Камолович
Ф.И.О.

Получил работник
заказчика

(подпись)

«___» 20 ___ г.

MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

2022 y. «25» 5

2022-650-2-41-OB-son

Shofirkon tumani.

"JUMAYEVA SOBIRA XUDOYEVNA" xususiy korxonasi (keyingi o'rinnlarda "Yetkazib beruvchi" deb yuritiladi), o'zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktori S.Jumayeva bir tomondan va **Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** (keyingi o'rinnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi), o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari H.Yakubov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I.ShARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga quyida ko'rsatilgan miqdor va narxda tovar (mahsulot) yetkazib berish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa o'z navbatida tovarni (mahsulotni) qabul qilib olib haqqini to'lash majburiyatini oladi:

Nº	Tovar (Mahsulot) nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi
1	Kompressor	dona	5	4000000	20 000 000
	Jami				20 000 000

1.2. Mazkur shartnomaga asosan yuqorida jadvalda ko'rsatilgan tovar (mahsulot)ni yetkazib berish muddati: 2022-yil 30-iyungacha.

II. TO'LOV ShARTLARI

2.1.Ushbu shartnomaning umumiyligi summasi 20 000 000 (Yigirma) million so'mni tashkil etadi.

2.2.Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan to'lov miqdori 6000000 so'mni, ya'ni belgilangan summaning 30 foizini tashkil qiladi va bu oldindan to'lov 2022-yilning iyun oyida amalga oshiriladi. Yakuniy to'loving miqdori esa 14 000 000 so'mni, ya'ni kelishilgan summaning 70 foizini tashkil etadi va bu yakuniy to'lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so'ng joriy moliya yili davomida amalga oshiriladi.

2.3. To'lov shakli naqd pulsiz pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III.TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1.Yetkazib beruvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqini to'lashni;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etishni;
- Buyurtmachi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.
- Yetkazib beruvchi Buyurtmachidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. Yetkazib beruvchining majburiyatları:

- tovarni Buyurtmachiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan davlat standartlariga muvofiq sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni Buyurtmachiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni Buyurtmachiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. Buyurtmachining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;

- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovari topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan davlat standartlariga muvofiq sifatdagi tovari topshirishni talab qilish;

- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovari topshirishni talab qilish.

3.4. Buyurtmachining majburiyatları:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovari o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- Yetkazib beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Buyurtmachi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'g'risidagi shartlari buzilganligi haqida Yetkazib beruvchiga o'n kun muddat ichida ma'lum qilishi shart.

IV. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

4.1 Tovarlar tomonlar kelishuviga ko'ra Buyurtmachining omboriga yetkazib beriladi.

4.2 Yetkazib beruvch tovarlarni maxsus himoyalangan idishlarda yetkazib beradi

4.3 Tovarni topshirish, qabul qilish joyi Buyurtmachining ombori hisoblanadi.

4.4 Tovarni topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 10 ish kunini tashkil qiladi.

4.5 Buyurtmachiga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda hisob-varaqni rasmiylashtirish sanasi Buyurtmachi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

4.6 Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqeа sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Taraflar majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

5.2. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyan to'lash shartnoma majburiyatlarni buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Buyurtmachi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'limgan miqdorida penya to'laydi.

5.4 Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, Buyurtmachi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Yetkazib beruvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar qiyomatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'limgan tovarlar yetkazib bergenlik uchun jarima Yetkazib beruvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

5.5 But bo'limgan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda Buyurtmachi tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi Buyurtmachining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat

ichida tovarlarni butlab berishi shart, bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli, yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'limgan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli. Tovarlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, Buyurtmachi (buyurtmachi) but bo'limgan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo'limgan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

5.6 Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib bergenlik uchun yetkazib beruvchi Buyurtmachiga(buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natalishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda Buyurtmachi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5.7 Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun Buyurtmachi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

5.8. Tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi, agar tomonlar kelisha olmasalar yuzaga kelgan nizolar qonunchilikka muvofiq iqtosodiy sud tartibida hal etiladi.

VI.KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

6.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga kafolat beradi.

6.3. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

6.4. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga riosa etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-sон farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

VII.FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1 Tomonlarga bog'liq bo'limgan, oldindan oldini olish mumkin bo'limgan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiylar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'limgan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtidan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

VIII.QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligesiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinch shaxsga berishga haqli emas.

8.3. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldag 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarining Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

8.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish amaldagi qonunchilikka muvofiq yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirigan holda bekor qilinishi mumkin.

8.6. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxdan beriladi.

8.7. Taraflarning manzili yoki hisob raqamlari o'zgargan hollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

IX.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

<p>«Yetkazib beruvchi » «Jumayeva Sobira Xudoyevna» XK Manzil: Buxoro viloyati Jondor tuman Tel./faks +998996641359 h/r2020800005449547002 Banknomi :Mikrokreditbank" Jondorfiliiali MFO 00108 OKED 47190 STIR 308957464 Rahbar  S.Jumayeva</p> 	<p>«Buyurtmachi» Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi Manzil: Shofirkon tuman Mirzoqul MFY Tel./faks 655023339 sh/h*100022860062587065200110003 budgetdan mablag' oluvchi STIR 201114223 OKED 90211 G'aznachilik nomi Moliya Vazirligi G'aznachiligi G'azna h/r 23402000300100001010 Bankning nomi Markaziy bank XKKM Toshkent shahar bosh boshoarmasi MFO:00014 G'aznachilik STIR 2011122919</p> <p>Rahbar  ov</p>
---	---

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi. Mahsulot yetkazib berish shartnomasi.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va "JUMAYEVA SOBIRA XUDOYEVNA" xususiy korxonasi o‘rtasida 20 000 000 (Yigirma) million so‘mlik mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan loyiha markazga 2022-yil 25-may sanasida yuridik xulosa uchun yuborilgan, 2022-yil 25-may sanasida loyiha markazning mas’ul xodimiga biriktirilgan.

Loyiha Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ilova hujatlari asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjalari muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Safarov